IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23. Issue 02. Sentabr ,2026

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINING XUSUSIYATLARI (4K MODELI ASOSIDA)

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti
tel: 934974980
https://doi.org/10.5281/zenodo.22691591

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida joriy etilgan yangi avlod darsliklarining didaktik va metodik xususiyatlari 4K (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya) modeli asosida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu darsliklarning o‘quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli, ularning mazmuniy tuzilishi va amaliy ahamiyati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, yangi avlod darsliklari, 4K modeli, kritik fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ дидактических и методических особенностей учебников нового поколения, внедряемых в системе начального образования, на основе модели 4К (критическое мышление, креативность, коммуникация, коллаборация). В исследовании раскрывается роль этих учебников в формировании компетенций XXI века у учащихся, а также освещаются их содержательная структура и практическая значимость.
Ключевые слова: начальное образование, учебники нового поколения, модель 4К, критическое мышление, креативность, коммуникация, коллаборация, компетентностный подход.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the didactic and methodological features of next-generation textbooks introduced in primary education based on the 4C model (critical thinking, creativity, communication, collaboration). The study highlights the role of these textbooks in developing 21st-century competencies among students, as well as their content structure and practical significance.
Keywords: primary education, next-generation textbooks, 4C model, critical thinking, creativity, communication, collaboration, competency-based approach.

Global ta’lim tizimidagi transformatsiyalar boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, XXI asrda ta’lim sifati o‘quvchilarning bilim darajasi bilan emas, balki ularning amaliy kompetensiyalari bilan belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, yangi avlod darsliklari 4K modeli asosida ishlab chiqilib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, samarali muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

4K modeli quyidagi to‘rtta asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi:

Kritik fikrlash (Critical thinking) – axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyati;

Kreativlik (Creativity) – yangi g‘oyalar yaratish va innovatsion yondashuv;

Kommunikativlik (Communication) – samarali muloqot qilish;

Kollaboratsiya (Collaboration) – jamoada ishlash ko‘nikmasi.

Ushbu yangi avlod darsliklarda o‘quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar beriladi. Masalan:

savol-javob asosidagi mantiqiy topshiriqlar; muammoli vaziyatlarni hal qilish;

sabab-oqibat aloqalarini aniqlash. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Yangi avlod darsliklarida ijodiy topshiriqlar alohida o‘rin egallaydi: hikoya tuzish; rasm asosida fikr bildirish; alternativ yechimlarni taklif qilish. Bunday yondashuv o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi va innovatsion fikrlashni shakllantiradi. Bundan tashqari darsliklarda dialogik o‘qitish usullari qo‘llanilib, o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatiladi. Bularga, juftlik va guruhli ishlash; bahs-munozara; taqdimotlar….Natijada, o‘quvchilarda nutq madaniyati va ijtimoiy faollik shakllanadi. Hamda yangi avlod darsliklari jamoaviy faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘z ichiga oladi: guruh loyihalari; rolli o‘yinlar; muammoli vazifalarni birgalikda hal qilish. Bu esa o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yangi avlod darsliklarining didaktik afzalliklari quyidagilardan iborat. Kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi; fanlararo integratsiya; vizual va interfaol materiallarning ko‘pligi; differensial ta’lim imkoniyatlari…

1-namuna: Ona tili (3-sinf) – Tanqidiy fikrlash va kommunikativlikka yo‘naltirilgan mashq

Matnni o‘qing: “Ali maktabga ketayotib yo‘lda yiqilib tushgan bolani ko‘rdi. U kechikayotganiga qaramay, bolaga yordam berdi.”

Savollar:

1. Ali to‘g‘ri ish qildimi? Nima uchun?
2. Agar siz uning o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?
3. Voqeaga boshqa yechim taklif qiling.
4. Juftingiz bilan fikr almashing va umumiy xulosaga keling.

2-namuna: Kollaboratsiyani rivojlantiruvchi mashqlar

(Atrof-muhitni o‘rganish, 3-sinf):

Guruhlarda ishlang. “Tabiatni asrash” mavzusida loyiha tayyorlang va taqdimot qiling. Mazkur topshiriq ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga asoslanib, o‘quvchilarda hamkorlik, mas’uliyat va liderlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

3-namuna (O‘qish savodxonligi, 2-sinf):

Rasmga qarab hikoya tuzing. Hikoyaga o‘zingiz sarlavha qo‘ying.

Ushbu topshiriq divergent fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchi bir xil rasm asosida turli mazmundagi hikoyalar yaratishi mumkin, bu esa ijodiy tafakkurning muhim belgisi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda yangi avlod darsliklari 4K modeli asosida o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu darsliklar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki ularni amaliyotda qo‘llash, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda yangi avlod darsliklari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois, pedagoglar ushbu darsliklardan samarali foydalanish uchun zamonaviy metodik yondashuvlarni chuqur o‘zlashtirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Egamberdiyeva N. Ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2020.
4. OECD. Education 2030 Framework for Learning. – 2019.
5. KREATIV SALOHIYAT TUSHUNCHASI BO‘YICHA OLIMLAR QARASHLARI
6. BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH
7. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

8. BOSHLANG ‘ICH SINF ONA TILI VA O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O ‘QUVCHILARNING KOMMUNAKATIV TA’LIMIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI
9. ONA TILI VA O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI
10. BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARINING KREATIV SALOHIYATLARINI IJODIY FIKRLASH ORQALI RIVOJLANTIRISH
11. Ways to Develop the Creative Power of Primary School Students
12. Important features of creative potential formation in primary school students
13. BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARINING KREATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI